



CHEXOVNING “GAROV” (“ПАРИ”) HIKOYASI HAQIDA QAYDLAR

Nizomova Ismigul

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
4-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5651331>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-oktabr 2021
Ma’qullandi: 25- oktabr 2021
Chop etildi: 30- oktabr 2021

KALIT SO‘ZLAR

Chexovshunoslik, uslubiyat,
gumanizm, hikoya, “Garov”,
tahlil

ANNOTATSIYA

Jahon adabiyotining zabardast ijodkorlari qatorida Anton Pavlovich Chexov nomi barchaga ma’lum. Adib nafaqat rus adabiyoti ravnaqida, balki dunyo adabiyoti rivojiga o‘zining serjilo va sermazmun asarlari bilan hissa qo‘shgan ijodkorlar qatoridan munosib o‘rin egallagan. Ushbu maqolada adib ijodi, yaratgan asarlaridagi uslub haqida so‘z yuritiladi hamda adibning “Garov” (“Пару”) hikoyasi tahlilga olinadi va ba’zi qarashlar ilgari suriladi.

Chexov ijodi o‘zida xalqchilik, tafakkur kengligi va badiiy-g‘oyaviy jihatlarni aks ettirganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Adib yaratgan katta-kichik asarlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, avvalo, o‘tmishning eng qora davrlari tasvirlanganiga guvoh bo‘lamiz. Adib, yashagan davrdagi “kapitalizmning dahshatli changali”, qoloqlik botqog‘iga botgan oddiy xalqdan tortib amaldor-u hukmdorlarni tasvirlar ekan, o‘tkir nigoh va poetik tasvirlarga alohida urg‘u beradi. Adib o‘zi ta’kidlagan: **“Adabiyot- mening ma’shuqam, tabobat esa rafiqamdir”**- degan jumлага e’tibor qaratadigan bo‘lsak, shifokorlik adibning ijtimoiy hayotda egallab turgan kasbi ekanligi ma’lum bo‘ladi. [1;2-b]. Rus adabiy jamoatchiligi adib ijodiga juda ko‘plab ijobiy munosabat bildirgan. “Garov” (originalda “Пару”) 1889-yilda “Новое время” jurnalida

bosilgan. Va qizg‘in muhokamalarga sabab bo‘lgan. [2.www.literatures.ru /мир русской литературы]. V. G. Korolenko: “Chexov asarlarida soddalik va samimiylik barq urib turadi”[2]. D. N. Ovsyanniko-Kulikovskiy fikricha “Chexov o‘z asarlarida barcha tafsilotlariga berilib o‘tirmay, ikki-uch badiiy-ruhiyat jihatlarni tasvirlash orqali asarni o‘qishli qiladi. U o‘z uslubiga ko‘ra Mopassanga yaqin turadi”[2]. Lev Tolstoy: “Chexov bu – prozadagi Pushkin”. P. I. Chaykovskiy: “Chexov ijodi bizning kelgusidagi ulkan so‘z boyligimiz sanaladi”[2].

Adib ijodiy merosining katta qismini hikoyalar tashkil etadi. Chexov kam so‘z bilan katta voqealarni tasvirlash san’ati orqali o‘z iste’dodini namoyon eta olgan. Adib ijodi dunyo qalamkashlariga shunaqa katta ta’sir ko‘rsatganki, hozirgacha



“Chexovshunoslik”, “Chexov hikoyalari maktabi”, “Chexov dramaturgiyasi” singari mahorat maktablari mavjud. Adib ijodiga yuzlanadigan bo’lsak, yumor bilan bir qatorda dardchilik holatlarini payqash qiyin emas. Yaratilgan obrazlar orasidan mukammal qiyofa deyarli topilmaydi. Qahramonlarni: kasallik, savodsizlik, telbalik, mansabparastlik, boylik, mastlik kabi illatlar kemirib turadi. Balki shuning uchun ham Chexov ideal odamni orzu qilib: **“Kishida hamma narsa go’zal bo’lishi zarur-yuzi, so’zi, kiyimi, qalbi, hatto fikri ham”**- deb yozgani bejiz emas. [1; 3-b].

Chexov 24 yil davomida 30 jildga yaqin asar yozgan. Lekin birorta ham roman yozmagan. Adib asarlarida ko’p so’zni ortiqchalik deb bilgan. **“Qisqalik-talantning singlisidir”** –deb o’ziga uslub tanlagan.[1; 5-b]. Adib nasr ustasi sifatida poeziyaga ham o’zini sinab ko’rgan. Ammo o’zining iqroriga ko’ra umrida bittagina she’r bitgan xolos...

Adib ijodida gumanistik g’oyalar barq urib turadi. Kitobxonlar orasida adibning “Chayka”, “Vanya amaki”, “Uch opa-singil”, “Olchazor” kabi qator pyesalari sevib o’qiladi.[1; 152-b].

Adib qalamiga mansub “Garov”(“Пари”) hikoyasi hayotiy voqealarga asoslanganligi, ijtimoiy hayotdagi oddiy insonlarni tasvirlagani bilan ahamiyatli. Hikoyada bugungi kun uchun zarur va kerak bo’lgan mavzular ochib beriladi. Adib hikoyada inson umri, uning qadr-u qimmatini, diniy va dunyoviy ilmning darajasi, ayniqsa, inson ma’naviy kamoloti kabi davr uchun dolzarblik ahamiyatini yo’qotmaydigan mavzularni qalamga olgan. [3. Adabiyot. 11-sinf. Darslik, 200-b].

Ushbu hikoya bankir va huquqshunos o’rtasidagi o’lim va qamoq jazolariga nisbatan qarama-qarshilik yuzasidan kelib chiqqan bahs **“Garov”** xususida. [4.Ziyo.com. Chexov A. Tanlangan asarlar]. Garov 15 yil muddatga belgilanadi. Adib 15 yil umrni shunchaki ta’riflamaydi. Inson bu vaqt davomida umrining eng go’zal lahzalarini qay yo’sinda o’tkazishi, ilm-ma’rifat yo’lida qanday natijalarga erishishi, qolaversa, nafsoniy xohish-istaklardan chekinib o’zligini topishga intilishni bosh maqsad qilib qo’ygan desak ham bo’ladi. Asar qahramoni bo’lgan huquqshunosning tutqunlikdagi umriga e’tibor bersak:

Birinchi yilda huquqshunosga, asosan, yengil-yelpi mazmundagi kitoblar- chigal sujetli ishqiy romanlar, jinoiy va fantastic ruhdagi hikoyalar, komediyalar va shunga o’xshagan narsalar yetkazib beriladi.

Ikkinchi yili musiqa va qo’shiq sadolari tinib, yurist mukka tushib olib, nuqul mumtoz asarlar mutolaa qila boshlaydi.

Beshinchi yilga borib qamoqxonadan yana ohang va navolar taraladigan, endi mahbus sharob berishlarini so’raydigan bo’ladi.

Oltinchi yilning ikkinchi yarmidan boshlab tutqun falsafa, tarix hamda xorijiy tillarni o’rganishga qat’iy bel bog’laydi.

Tutqunlikning **o’n birinchi yilidan** boshlab huquqshunos Muqaddas kitobni o’qishga tushdi.

So’nggi ikki yil mobaynida huquqshunos nihoyatda ko’p mutolaa qildi. Qo’liga tushgan narsani o’qidi va h.k.[1; 155-157 b].

O’tgan 15 yilda huquqshunos butkul o’zgardi. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga tayansak, huquqshunos o’zi



yashab turgab hayotni ipidan-ignasigacha o'rgandi. Bu vaqt oralig'ida o'qigan kitoblari aqlini charxlab, idrokini o'tkirlashtirdi. Endi boylik, hasad, hirs -u havas ustun bo'lgan hayot unga begonalashdi. Nafs qutqusidan xolos bo'ldi. Endi unga ko'ngilochar ziyofatlar, boylar to'planadigan davralar shunchaki ermakday tuyila boshladi. 40 yoshida huquqshunos katta bilim sohibi egasi bo'ldi. O'zi uchun ma'naviy dunyo kashf etdi. Ma'lum ma'noda, diniy va dunyoviy bilimlarni egallab yetuk shaxs qiyofasini kasb etdi.

Hikoya qahramonlaridan yana biri bankir obrazida ham o'ziga xos vazifa yuklangan. To'plagan million pullarini qayerga sarflashni bilmagan, pulini hisobiga yetmaydigan bankir qiyofasida bugun nafs qutqusiga ergashib hamma narsani mol-davlat bilan o'lchaydigan insonlar uchun ibrat bor.

Hikoya oxirida ikki qahramon hayotida ham tub burilish yasaladi. Bankir o'z xatolaridan xulosa oladi, o'ziga nisbatan nafrat tuyg'ularini his qildiradi. Huquqshunosning esa borliqqa, tabiat va insonlarga munosabati o'zgaradi. Ruhan poklanadi, qalban ulg'ayadi. Bilim bilan saodat yo'lini ochadi. Bankirga ham mol-dunyo insonni baxt va saodatga yetaklamasligini isbotlab beradi.

Dunyoni bilmakka idroking garov,

Zehn qo'yomoqqa dili poking garov.

Yaxshi ish qilmoq uchun yo'qsa o'quv,

Sanga lozimdur uquv birlan o'quv.

Yuqorida keltirilgan baytda inson umri davomida egallagan jamiki aql-zakovat, ilm-ma'rifat, yoki minglab kitoblarni o'qish bilan odam bo'lmasligi, o'qigan narsasini uqishi lozimligi ta'kidlanadi. Ma'rifatga olib boruvchi qiyinchiliklarni sobitqadamlik bilan bosishi, bu yo'lda hormay-tolmasligi uchun zarur maslahatlar keltirib o'tilgan. Dunyoni anglash yo'lida ma'rifat hosil qilish yo'l-yo'rig'i ko'rsatilgan. Hikoya qahramoni shunchaki o'qib dunyoni anglamadi. Hayotni uqib teran xulosalarga tayanib ma'lum bosqichga yetib keldi.

Adib ushbu hikoyada rus xalqining ijtimoiy hayotini ham yoritib beradi. Shu davrda o'z xalqining dabdabavozlikka o'chligi, boylarning pulini turli qimor o'yiniyu, garovlarga tikib behuda sarflashini ochiq tasvirlaydi. Bilimsiz kishilarning ko'ngli xurofotga moyil bo'lishini tasvirlaydi.

Adibning nafaqat "Garov" hikoyasi, balki "Lozim choralar", "Oy tutilishi", "Shikoyat daftari", "Chiqdi", "Oqsoqol" kabi ko'plab hikoyalarida inson ma'naviy tarbiyasiga dalxdor jihatlarni olish mumkin. Chexov asarlarida ilgari surgan konsepsiyalar millat ma'naviyati, insonlar dunyoqarashi va shakllanishi uchun muhim turtki bo'ladi desak, yanglishmaymiz. M. Sholoxov Chexov ijodini benuqson deb ataydi[2]. "Chexovning chertma, jaranglab turgan, "kaftdekkina" hikoyalari o'zining chiroyliligi, haqqoniyligi va turmushni chuqur aks ettirishi bilan o'quvchini o'ziga asir qiladi" [5. Abdulla Qahhor. 2-tom, 8-bet].



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://saviya.uz>
2. www.literaturus.ru /мир русской литературы.
3. Adabiyot. 11-sinf uchun darslik. B. To'xliyev va b. T. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" nashriyoti. 2018. 200 b.
4. www.ziyouz.com. kutubxonasi. A. Chexov. Tanlangan asarlar.
5. Абдулла Қаҳҳор. Асарлар. Олти томлик. 2 том. Т. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1989. 272 б.